



KASBIY TA'LIM TIZIMIDA EHTIYOJGA ASOSLANGAN MALAKA OSHIRISH MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.

Alijonov Utkirjon Maxamadaliyevich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Otayarov Javohir Odiljon o'g'li

Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi kasbiy ta'lim tizimida pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarini ehtiyojga asoslangan yondashuv asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Dars tahlili mexanizmlarining asosiy jihatlari, ularning pedagoglar kompetensiyasidagi bo'shliqlarni aniqlashdagi o'rni va raqamlashtirish orqali monitoringni takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan. Malaka oshirish jarayonini individuallashtirish, kasbiy ehtiyojlarga mos dasturlar ishlab chiqish hamda ilg'or tajribalarni ommalashtirish bo'yicha takliflar berildi.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, malaka oshirish, ehtiyojga asoslangan yondashuv, dars tahlili, dars tahlillarini o'tkazish bo'yicha yo'riqnomalar, pedagog salohiyati, raqamlashtirish, monitoring.

Hozirgi kunda kasbiy ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash va ularning raqobatbardoshligini oshirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-sonli Farmonida kasbiy ta'lim tizimida malakali pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, xalqaro standartlarga mos dasturlarni joriy etish vazifalari belgilangan. Bu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun pedagog kadrlarning kasbiy ehtiyojlarini aniqlash va shu asosda malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

1. Ehtiyojga asoslangan malaka oshirish zarurati

Kasbiy ta'lim tizimida pedagog kadrlarning malakasini oshirishda ehtiyojga asoslangan malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Pedagoglarning kasbiy faoliyati, ularning dars jarayonidagi yutuq va kamchiliklarini tizimli o'rganish, ayniqsa, individual rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash jarayoni malaka oshirish dasturlarining sifatini tubdan yaxshilaydi. Aytish joizki, ehtiyojga asoslangan malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda dars tahlillarini o'tkazish muhim vazifa sanaladi. Shu nuqtai nazardan dars tahlili jarayoni nafaqat o'quv mashg'ulotlarini baholash vositasi, balki ta'lim tizimida aniq maqsadli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiluvchi asosiy mexanizmdir. Tahlil jarayonida pedagoglarning psixologik va metodik tayyorgarligi, o'quv jarayonida qo'llanilayotgan usullar va vositalarning samaradorligi, shuningdek, o'quvchilarning



o'zlashtirish darajasi atroflicha baholanadi. Shu asosda malaka oshirish kurslarini individuallashtirish va ularni har bir pedagogning ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu yondashuv o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish, ta'lim sifati va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

2. Dars tahlili mexanizmi va ahamiyati

Ehtiyojga asoslangan malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda dars tahlillarini o'tkazish muayyan tartibdagi yo'riqnoma asosida amalga oshirilishi maqsadga mubofiq sanaladi. Dars tahlillarini o'tkazish bo'yicha yo'riqnoma esa belgilangan tartibda pedagoglar faoliyatini muntazam ravishda nazorat qilish va rivojlantirishning samarali usuli sifatida ko'zda tutilishi lozim. Shuningdek, tahlil jarayonida pedagoglarning kuchli va zaif jihatlari aniq mezonlar asosida baholanishi, ilg'or tajribalarni keng ommaga yetkazish uchun sharoit yaratish, past ko'rsatkichlarga ega pedagoglar uchun esa individual rivojlantirish rejalari ishlab chiqishni o'z ichiga olishi lozim. Bu yondashuv malaka oshirish kurslarini umumiy emas, balki aniq ehtiyojlarga yo'naltirilgan holda rejalashtirishga yordam beradi va pedagoglarning professional salohiyatini oshirishda katta samara beradi.

3. Raqamlashtirilgan monitoring tizimini joriy etish

Ta'lim tizimida dars tahlilini raqamlashtirilgan axborot tizimlari orqali yuritish jarayonni yanada samarali va shaffof qilish imkonini beradi. Raqamlashtirish vositalari ma'lumotlarni tezkor yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu esa pedagoglarning rivojlanish ehtiyojlarini aniq segmentlarga ajratishga yordam beradi. Bundan tashqari, raqamli monitoring tizimi resurslardan samarali foydalanish, statistik hisobotlarni avtomatlashtirish va qaror qabul qilish jarayonini soddalashtirish orqali butun ta'lim tizimining boshqaruv sifatini oshiradi.

4. Malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish

Malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish kasbiy ta'lim tizimida ehtiyojga asoslangan malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy natijasi sifatida qaraladi. Bunda pedagoglarning individual kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar va seminarlar tashkil etiladi, hududiy hamda respublika miqyosida o'xshash ehtiyojlarni tahlil qilish va ular asosida modul dasturlar ishlab chiqish amalga oshiriladi. Yuksak solahiyatga ega pedagoglarning tajribasini ommalashtirish va ularni ustoz-shogird tizimi orqali boshqa pedagoglarga o'rgatish tizimni yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Shu tariqa, ehtiyojga asoslangan yondashuv nafaqat pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi, balki butun kasbiy ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, Kasbiy ta'lim tizimida ehtiyojga asoslangan malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirish pedagoglar salohiyatini oshirishning samarali vositasidir. Dars tahlili natijalaridan keng foydalanish, raqamlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish va maqsadli dasturlarni ishlab chiqish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayoni yangi bosqichga ko'tariladi. Bu yondashuv nafaqat pedagoglarning kasbiy



rivojlanishini ta'minlaydi, balki ta'lim tizimida samaradorlikni oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.

